

O'ZBEKISTON VA XITOY XALQ RESPUBLIKASI O'RTASIDA OLIV TA'LIM TIZIMIDA HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Karimov Mansur Maxamatxonovich,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekistonda oliv ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliv ta'lim muassasalari bilan aloqalarini kuchaytirish, chet el investitsiyasini ta'lim sohasiga jalg etishga alohida e'tibor qaratilib kelindi. Ushbu maqolada O'zbekiston va Xitoy xalq respublikasi o'rtasida oliv ta'lim tizimida hamkorlik aloqalarining rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston va Xitoy, oliv ta'lim tizimi, hamkorlik aloqalari, zamonavuy ta'lim, ta'lim sifati, investitsiya.

O'zbekiston oliv ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, malakali ilmiy – pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor – o'qituvchi, doktorant, aspirant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar bilan izchil hamkorlik qilib keldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridan oliv ta'lim muassasalarida Yaponiya, Janubiy Koreya, Gretsya, Misr, Italiya, Polsha va boshqa xorijiy davlatlar ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatdi[1]. O'zbekiston oliv ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Koreya Respublikasining (KOICA), Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Germaniya Akademik almashinuv xizmati (DAAD), AQShning ta'lim va til o'rganish hamkorligi tashkiloti (AKSELES, AYREKS,) Tinchlik korpusi kabi xalqaro tashkilotlarning ta'lim dasturlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ydi[2].

1995 – 1997 yillarda Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bevosita 20 dan ortiq mamlakatlar bilan ta’lim sohasida o‘zaro aloqalar olib borib, hamkorlik qildi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari Buyuk Britaniya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Avstriya, Belgiya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Angliya, Yaponiyadagi universitet va boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirib keldi. Ular orasida AQSH, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlar katta o‘rinni egallaydi. Shu yillarda O‘zbekistonning 1960 nafar fuqarosi, ya’ni 1683 nafar talaba, 115 nafar aspirant, 162 nafar tadqiqotchi o‘qituvchi ushbu davlatlarda ta’lim oldi. 1995 yilning o‘zida respublika oliy o‘quv yurtlaridan xorijiy oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun 1200 talaba o‘qishga yuborildi. Talaba yoshlarning chet mamlakatlarda o‘qishi va ularning dunyoviy tajribalarni, jahon taraqqiyotini o‘rganishlarida “Umid” jamg‘armasining o‘rni nihoyatda katta bo‘ldi. Bu jamg‘arma 1997 yil 7 yanvarda tuzilgan bo‘lib, jamg‘arma uchun ajratilgan grant hisobiga ko‘ra AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiyaga iqtidorli talabalar bakalavr va magistr darajalarini olish uchun o‘qishga jalb etildi. 1997 yil sentabrida “Umid” jamg‘armasi tomonidan Toshkent davlat texnika universitetida Malayziyaning “Penong Berxan” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan Biznes boshqaruvi fakulteti talabasi Jahongir Mamajonov Amerikaning Alabama universiteti iqtisodiyot menejmentligi fakultetiga o‘qishini davom ettirish uchun yuborildi[3].

O‘zbekistonlik ko‘plab professor – o‘qituvchi, aspirant hamda talabalar Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy bilan oliy ta’lim tizimida malaka oshirish, tajriba almashish, o‘qitishning zamonaviy usullarini o‘rganish, turli anjumanlarda ishtirok etish va tahsil olish maqsadida ushbu davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalari hamda markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Bundan tashqari, turli darslik, o‘quv qo‘llanmalarini va metodik ishlanmalar yaratishda birgalikda ish olib borildi.

1994 yil 15 aprelda O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtaida 1994 – 1998 yillarga mo'ljallangan bitimi imzolandi. Bu bitim O'zbekiston milliy – madaniy assotsiatsiyasi va Chet mamlakatlar bilan do'stlik Xitoy xalq jamiyatni o'rtaida imzolandi. Ushbu bitimning 2 – bandida fan, ta'lim sohasida hamkorlik qilish bo'yicha ma'lumot berildi[4].

1999 yil 8 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi va Xitoy o'rtaida oliy ta'lim sohasida hamkorlik qilish bo'yicha shartnomasi imzolandi. Ushbu bitim ikki davlat o'rtaida oliy ta'lim sohasida hamkorlikning yanada rivojlanishiga asos bo'ldi. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti respublikamizdagi eng keksa oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro aloqa olib borishda o'ziga xos tajribaga ega. Mazkur o'quv muassasasi nafaqat Yevropa, balki Osiyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari bilan ham hamkorlikda maxsus dastur va loyihibar asosida ish yuritdi. Bu oliy ta'lim muassasasi Xitoydagi Sichuan yengil sanoat va qog'oz texnologiyasi instituti bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi. 1995 yili institut Xalqaro to'qimachilik akademiyasi, 1996 yili matbaachi oliy o'quv yurtlari Xalqaro Assotsiatsiyasi, 1997 yili Xalqaro ipak uyushmasiga a'zo bo'ldi. Institut olimlari Gretsiya, Belgiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Angliya kabi davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan fanning turli sohalari bo'yicha hamkorlik qilib keldi. Istiqlol yillarda institutning 400 dan ortiq professor – o'qituvchilari va iqtidorli talabalari xorijiy davlatlarda o'z malakasini oshirdi[5].

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Ta'lim vazirligi o'rtaida 1999 yil 8 noyabrdan belgilangan "Ta'lim sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnomasi doirasida Xitoy oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning qator oliy ta'lim muassasalaridan 40 nafar talaba, fan nomzodlari va yosh mutaxassislar amaliyot o'tadilar[6].

2004 yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri S. G'ulomov boshchiligidagi rektorlardan tuzilgan delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida Xitoy Xalq Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Chjou Tszi O'zbekiston

hukumatining ta’lim sohasida amalga oshirayotgan islohotlariga yuksak baho berdi. Tashrif chog‘ida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Pekin aloqalar universiteti hamda Shanxay universitetlari o‘rtasida shartnama imzolandi[7].

2004 yil 15 iyunda Toshkent shahrida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshida Xitoyning Lanzhou universiteti bilan hamkorlikda dunyodagi birinchi Konfutsiy instituti tashkil etildi. Ikki davlat o‘rtasida oliy ta’lim sohasidagi xamkorlik doirasida 2012 – 2013 o‘quv yilida Pekin davlat universitetida o‘zbek tili darslarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

2013 yil 9 sentabrda O‘zbekiston Xitoyning xorijda xitoy tilini targ‘ib qilish davlat kansleri (Xanban) bilan hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. Samarqand davlat chet tillar instituti va Xitoyning Shanxay xorijiy universiteti bilan hamkorlikda ikkinchi Konfutsiy instituti tashkil etildi. Konfutsiy institutlari tashkil etilganidan so‘ng minglab o‘zbekistonliklar xitoy tilida o‘qitildi va ularga sertifikatlar topshirildi[8]. O‘zbekistonda va qolaversa butun Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi bo‘lib Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2014 yili Sinologiya fakulteti ochildi. Ushbu fakultetda ikkita ixtisoslashtirilgan “Xitoy filologiyasi” va “Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti” kafedralari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning deyarli ko‘pchilik OTMlari Osiyo davlatlarining universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yib keldi. Masalan, Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti Zootexnika va qorako‘lchilik fakulteti professor – o‘qituvchilaridan Sh.Amirov, E.S.Shaptakov, A.A.Xushvaqtov va assistent A.Hatamovlar Isroil, Hindiston va Xitoy mamlakatlariga tajriba almashishga bordi. Shuningdek, fakultetning bakalavri Dilshod Nabihev BONN universitetida (Germaniya) chorvachilik seleksiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistraturada tahsil oldi. Bundan tashqari fakultetni tamomlagan mutaxassislardan Lola Haydarova, Ruslan Abdug‘aniyevlar ishlaydigan tashkilotlari orqali Isroil davlatida chorvachilik bo‘yicha o‘z malakalarini oshirdilar. Keyingi yillarda ham O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida ta’lim va ilm – fan

sohasida bir necha yo‘nalishda hamkorlik jadal rivojlandi. Shu tariqa 2019 yil iyulda Xitoy Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi delegatsiyasining O‘zbekistonga tashrifi bunga misol bo‘la oladi. Ushbu tashrif chog‘ida ikki davlat olimlari va mutaxassislari o‘rtasida hamkorlikning asosiy masalalari bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ilm – fan sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga e’tibor qaratilib, Fanlar akademiyasi o‘rtasidagi hamkorlikning “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Xitoy qishloq xo‘jaligi fanlari va naslchilik tadqiqot instituti bilan qo‘shma hamkorlik tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi. 2017 – 2020 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi olim va tadqiqotchilari o‘rtasida 20 ta 16,7 mlrd so‘mlik ilmiy loyihalar amalga oshirildi. 2021 yilda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida fan, texnika va innovatsiyalar bo‘yicha quyi qo‘mita yig‘ilishi o‘tkazildi hamda ilm – fanni rivojlantirish va shu yo‘nalishdagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishib olindi. Buning natijasida O‘zbekistonning Orol bo‘yi xalqaro innovatsiya markazida Xitoy Fanlar akademiyasi Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda ilmiy – tadqiqot tajriba maydoni tashkil etildi va Xitoydan suvni tejovchi texnologiya uskunalarini keltirildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2021 – 2022 o‘quv yilida Sinologiya ixtisosligi bo‘yicha 72 ta o‘quv guruhlari faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalishda 770 nafar talaba bakalavriatda, 88 nafari magistraturada, 15 nafari doktoranturada tahsil oldi. Ayniqsa, shuni ta’kidlash joizki, so‘nggi uch o‘quv yilida 20 ga yaqin Xitoy fuqarolari respublikamizda bakalavriat ta’limini tamomladi. Toshkentda faoliyat yuritayotgan Konfutsiy institutida har yili 350 dan ortiq talaba tahsil oladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Jahongirov B. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm – fan sohasidagi hamkorlik aloqalari // "Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.
3. Abdurahmonov A. Umidlarni ushaltirgan "Umid"... // Toshkent oqshomi, 1997 yil 5 sentyabr.
4. O'z MA, M – 2 – fond, 1 – ro'yxat, 34 – ish, 20 – varaq.
5. Jumaniyazov Q., Abdug'afforov A., Hayitov I., Institut olimlari. – T.: Davr, 2012.
6. Karimov M. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida halqaro hamkorlik yangi bosqichda // QarDU xabarlari, 2021 yil 3-son.
7. Ta'lim sohasida hamkorlik // Xalq so'zi, 2004 yil 10 mart
8. Узбекистан и Китай: партнерство во имя науки и просвещения // Правда Востока, 25 январь 2022. года
9. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qarshi filiali 2020 yilgi hisobotidan.
- 10 .O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 2018 yilgi hisobot ma'lumotlaridan.
- 11 Национальный доклад по науке и инновациям Республики Узбекистан за 2017 – 2020 гг. – Т.,2021.
12. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi joriy arxiv. 2022 yil.
13. Karimov, K. (2023). OFFICIALS OF JUDICIAL INSTITUTIONS AND HISTORY OF THEIR FORMATION. *Абай атындағы ҚазҰПУ-нің ХАБАРШЫСЫ, «Юриспруденция» сериясы.*
14. Karimov, K. (2021). Qozilik mahkamalari hujjatlariga oid ayrim mulohazalar. *Sohibqiron yulduzlari.*